

Sariqlik Sindromining Differensial Patogenezi

3-kurs talabasi **Ismatova Dilshoda Sidiq qizi**

Davolash va pediateriya yo'nalishi Davolash fakulteti

ismatovadilshoda38@gmail.com

+998886189192

"Xirurgik kasalliklar" kafedra mudiri dotsent **Mirzayev.D.A**


Kalit so'zlar: bilirubin, jigar funksiyasi, eritrosit, gemoliz, o't yo'llari obstruksiyasi, diagnostika.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada mexanik, gemolitik va parenximatoz sariqliklarning rivojlanish mexanizmlari, ularning etiologik omillari hamda patofiziologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bilirubin almashinuvining buzilish bosqichlari, gepatotsitlar funksional holati, eritrotsitlar gemolizi va o't yo'llari obstruksiyasining organizmga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, sariqlik turlarida kuzatiladigan biokimyoviy, metabolik va gemodinamik o'zgarishlar hamda ularning klinik diagnostikadagi ahamiyati keng tahlil etilgan [1.123]. Bundan tashqari, differensial diagnostika usullari, laborator ko'rsatkichlar va zamonaviy diagnostik yondashuvlarning ahamiyati ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari sariqlik sindromining patogenezi chuqurroq tushunish hamda kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash strategiyalarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация: В данной научной статье представлен сравнительный анализ механизмов развития механической, гемолитической и parenхимальной желтухи, их этиологических факторов и патофизиологических особенностей. В ходе исследования на основе научных источников рассмотрены стадии нарушений билирубинового обмена, функциональное состояние гепатоцитов, гемолиз эритроцитов и влияние билиарной обструкции на организм. Также подробно проанализированы биохимические, метаболические и гемодинамические изменения, наблюдаемые при различных типах желтухи, и их значение в клинической диагностике [1.123]. Кроме того, рассмотрено значение методов дифференциальной диагностики, лабораторных показателей и современных диагностических подходов. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для более глубокого понимания патогенеза желтушного синдрома и совершенствования стратегий ранней диагностики и эффективного лечения заболевания.

Ключевые слова: билирубин, функция печени, эритроциты, гемолиз, обструкция желчных путей, диагностика.

Abstract: This scientific article provides a comparative analysis of the mechanisms of development of mechanical, hemolytic and parenchymal jaundice, their etiological factors and pathophysiological features. During the study, the stages of bilirubin metabolism disorders, the functional state of hepatocytes, erythrocyte hemolysis and the effect of biliary obstruction on the body were covered based on scientific sources. Also, biochemical, metabolic and hemodynamic changes observed in types of jaundice and their significance in clinical diagnostics were extensively analyzed [1.123]. In addition, the significance of differential diagnostic methods, laboratory indicators and modern diagnostic approaches was also considered. The results of the study are of significant scientific and practical importance for a



deeper understanding of the pathogenesis of jaundice syndrome and improving strategies for early detection and effective treatment of diseases.

Keywords: bilirubin, liver function, erythrocyte, hemolysis, biliary obstruction, diagnostics.

Kirish. Sariqlik jigar va o't yo'llari kasalliklarida uchraydigan xarakterli sindromdir. Patofiziologik jihatdan sariqlikning asosiy turlari gemolitik, parenximatoz va mexanik sariqlikdan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos etiologik omillar, patogenetik mexanizmlar va klinik-laborator belgilar bilan tavsiflanadi. Zamonaviy tibbiyotda sariqlikning patogenezi chuqur o'rganish kasalliklarni erta tashxislash, differensial diagnostika qilish hamda samarali davolash choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Turli chiqib kelishga ega bo'lgan sariqliklarning umumiy yoki birlashtiruvchi belgisi - bu o't pigmentlari almashinuvining buzilganligini ko'rsatuvchi shilliq qavatlar va terining sarg'ayishidir. Ammo sariqlik hamma vaqt ham jigar vazifasining o'zgarganligini ko'rsatuvchi belgi yoki uning oqibati hisoblanavermaydi. Sariqliklar patogenezi ko'p turda bo'lishi sababli teri qoplamlarining ikterik rangi turli patologiyada turlicha tusga egadir. Masalan, ozod bilirubin to'planishi natijasida teri limon kabi sariq rangda, bog'langan bilirubinda esa yashil sariq rangda bo'ladi[2.437].

Kelib chiqishi va rivojlanish mexanizmlariga ko'ra sariqlikning asosiy uch turi farqlanadi:

Mexanik sariqlik (jigardan pastda yuz beruvchi). Bu xil sariqlikni jigar osti, dimiqqan yoki obturatsion sariqlik deb ham nomlanadi. U o't kapillyarlari, o't qopi yoki asosiy o't yo'llaridan o'n ikki barmoq ichakka o't ajralishining buzilishi natijasida paydo bo'ladi. Bunday holatga o't yo'llaridagi tosh, ulardagi yallig'lanish jarayoni, o't pufagida parazitlar bo'lishi, o't chiqarish yo'llarining diskineziyasi, o'smalar, shu jumladan oshqozon osti bezi boshchasining o'smasi sabab bo'lishi mumkin. O't oqishining buzilishi o't kapillyarlarida bosimning ortishi, taranglashishi, devorining o'tkazuvchanligining ortishi va qon tomir kapillyarlariga o'tning tarkibiy qismlarining qayta diffuziyasi bilan kechadi. O't ajratish yo'llarining o'tkir to'liq beqilishida o't kapillyarlari yorilishi ham mumkin. Bunda o't jigar to'qimasi bilan bevosita aloqada bo'lib, uni shikastlaydi, bu esa yalli'lanish jarayoniga, ya'ni biliar gepatit rivojlanishiga olib keladi[3.227].

Parenximatoz sariqlik (jigarda paydo bo'luvchi). Parenximatoz sariqlik jigarga yuqumli-parazitar omillar (virus, bakteriyalar va ularning toksinlari, bezgak plazmodiysi va boshqalar) va noinfektsion ta'sirlar (organik va anorganik zaharlar, masalan karbon IY xloridi, alkogolning katta dozalari; gepatotrop antitanalar va sensebillangan limfotsitlar; o'smalar va boshqalar) ning to'g'ridan-to'g'ri ta'siri natijasida vujudga keladi. Jigar funktsiyalari buzilishining xarakteri va rivojlanishining ko'rinishi shikastlanish darajasi va shikastlangan gepatotsitlar soniga bog'liq. Ko'p hollarda shikastlanish hujayra membrana tuzilmalarining o'zgarishi yoki fermentlar faolligining pasayishi bilan boshlanib, rivojlanadi va jigar hujayralarining destruktiviyasi bilan yakunlanishi mumkin[2.440].

Gemolitik sariqlik (jigardan yuqorida paydo bo'luvchi). Bunday sariqlikka turli xil omillar (eritrotsitlarning o'zidagi yoki tashqi) ta'sirida eritrotsitlarning me'yoridan ortiq parchalanishi sabab bo'ladi. Bunda eritrotsitlar gemolizi natijasida vujudga keluvchi belgilardan tashqari, qonda bilvosita bilirubin miqdorining ko'payishi kuzatiladi. Bu holat a) uning gemoglobindan ko'p miqdorda hosil bo'lishi; b) normal jigar hujayralarining qondagi ortiqcha miqdordagi bilvosita bilirubinni ushlab qolishi va o'zgartirish qobiliyatining pasayishi natijasida vujudga keladi. Uning kelib chiqishiga eritrotsitlar gemolizi natijasida vujudga keluvchi gipoksiya ham sabab bo'ladi, chunki gepatotsitlardagi, xususan bilvosita bilirubinni diglyukuronidga aylantiruvchi fermentlar faolligi pasayadi. Qonda bilvosita bilirubin ortishi natijasida teri va shilliq qavatlar sariq rangga kiradi. Uning rivojlanish darajasi va tusi gemolizning jadalligiga



bog'liq. Bir vaqtning o'zida najas va siydik tarkibida sterkobilinogen va urobilinogen miqdorining ortishi sababli ular kuchliroq bo'yaladi. Eritrotsitlar lizisi natijasida vujudga kelgan sariqlikda qon va siydikda urobilinogen miqdori ko'pligi aniqlanadi. Portal vena qonida bu pigment kontsentratsiyasining ko'p bo'lishi natijasida urobilinogen jigarni chetlab o'tib, umumiy qon aylanishiga tushadi. Bu albatta o'z navbatida jigarda bevosita bilirubinning ko'p hosil bo'lishiga bog'liq, buning natijasida ingichka ichakda urobilinogen ko'p hosil bo'lib, ularning bir qismi yog' kislotalari bilan birga ichakka qayta so'riladi[3.22].

Tadqiqot maqsadi. Mexanik, gemolitik va parenximatoz sariqliklarning rivojlanishida ishtirok etuvchi asosiy patofiziologik mexanizmlarni qiyosiy tahlil qilish, bilirubin almashinuvi buzilishining o'ziga xos jihatlarini o'rganish hamda ushbu sariqlik turlarining klinik-diagnostik ahamiyatini baholashdan iborat. Shuningdek, gepatotsitlar funksional holati, gemoliz jarayonlari va o't yo'llari obstruksiyasi bilan bog'liq metabolik o'zgarishlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish ham tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot usullari sifatida qiyosiy-tahliliy, patofiziologik, biokimyoviy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Sariqlik turlarida bilirubin almashinuvi, gepatotsitlar funksional holati, gemoliz jarayonlari hamda o't yo'llari obstruksiyasi bilan bog'liq o'zgarishlar ilmiy jihatdan baholanadi. Shuningdek, qon biokimyoviy ko'rsatkichlari, jumladan umumiy bilirubin, bog'langan va bog'lanmagan bilirubin, alaninaminotransferaza (ALT), aspartataminotransferaza (AST), ishqoriy fosfataza va gamma-glutamilttransferaza ko'rsatkichlarining diagnostik ahamiyati qiyosiy o'rganiladi.

Sariqlikni davolash kasallikning etiologik omillarini bartaraf etish, bilirubin almashinuvini me'yorlashtirish hamda jigar va o't yo'llari funksiyasini tiklashga qaratiladi. Gemolitik, parenximatoz va mexanik sariqliklarda davolash tamoyillari turlicha bo'lsada, ularning umumiy maqsadi organizmdagi intoksikatsiyani kamaytirish, gepatotsit faoliyatini yaxshilash va asoratlarning oldini olishdan iborat. Zamonaviy terapiyada etiologik, patogenetik va simptomatik davolash usullari kompleks ravishda qo'llaniladi[5.840].

Sariqlikning barcha turlarida parhez terapiyasi muhim o'rin egallaydi. Bemorlarga yog'li, qovurilgan va gepatotoksik mahsulotlarni cheklash, vitaminlarga boy ovqatlanish hamda alkogoldan voz kechish tavsiya etiladi. Kompleks davolash usullarining o'z vaqtida qo'llanilishi kasallik prognozini yaxshilash, asoratlarni rivojlanishini kamaytirish va jigar funksiyasini tiklashda muhim klinik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Gemolitik, parenximatoz va mexanik sariqliklar turli etiologik omillar ta'sirida rivojlansada, ularning umumiy patofiziologik asosi bilirubin almashinuvining buzilishidan iborat. Gemolitik sariqlikda eritrotsitlar parchalanishi yetakchi omil bo'lsa, parenximatoz sariqlikda gepatotsitlarning funksional zararlanishi, mexanik sariqlikda esa o't yo'llari obstruksiyasi asosiy patogenetik mexanizm hisoblanadi. Ushbu sariqlik turlarining patogenezi chuqur o'rganish kasalliklarni erta tashxislash, differensial diagnostika va samarali davolash choralari ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Journalss maqola.
2. N.H. Abdullayev, H.Yo. Karimov, B.O'.Irisqulov, "Patologik fiziologiya". "Yangi asr avlodi" NMM, 2008 y.
3. R.H.Azimov, "Patologik fiziologiya". Toshkent 2010 y.
4. Hasanov X., Ahmedov A. Patologik fiziologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. Robbins S., Cotran R. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease. 10th edition. – Philadelphia: Elsevier, 2021.
5. Boyko N.N. Jigar kasalliklari patogenezi va diagnostikasi. – Sankt-Peterburg: Meditsina, 2019.